



**TOG'AY MUROD ASARLARIDA QO'LLANILGAN IBORALARNING
SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI**

Marjona Orifova

*SamDU Markaziy Osiyo xalqlari tillari
va madaniyati instituti 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqola so'zlashuv nutqida iboralarning semantik-pragmatik masalalariga bag'ishlangan bo'lib, iboralarning pragmatikasiga alohida e'tibor qaratiladi. Tog'ay Murodning asarlaridan misollar keltiriladi va tahlilga tortiladi.*

Kalit so'zlar: *Pragmalingvistika, uning o'rganilishi, kontekst, diskurs, kommunikativ maqsad, ibora.*

So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida matnning pragmatik tahlili bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Pragmalingvistikani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida ajratish va uning o'rganish obyekti, predmetini aniqlash uchun lisoniy birliklarning turli kommunikativ muhitda pragmatik qiymati, "bahosi", mundarijasining namoyon bo'lishini ta'minlovchi omillarni izlamoq darkor. Lisoniy birliklarning har qanday sharoitda namoyon bo'ladigan belgilari ularning ontologik va vazifaviy (funksional) xususiyatlari namunasidir. Pragmalingvistik tadqiq metodologiyasi, birinchidan, o'z falsafiy asosiga ega bo'lishi kerak bo'lsa, ikkinchidan, xuddi shu xususiyatlarni (ontologik va vazifaviy) aniqlash imkoniyatini yaratmog'i lozim. Bunday metodologiyaning tayanch nuqtasi xizmatini, so'zsiz, faoliyat tamoyili yoki umuman faoliyat falsafasi o'tashi mumkin. Faoliyat kategoriyasining lingvistik tadqiqotlarda asosiy metodologik tamoyil sifatida qabul qilinishi kommunikativ tizimning tarkibiy qismlari, ularning tuzilishi, lisoniy va nolisoniy mohiyati haqida batafsilroq bilimga ega bo'lish imkonini yaratadi²⁰. Muloqot jarayonining faoliyat tamoyili nuqtai nazaridan yoritilishi pragmalingvistikaga nazariy libos kiydirish bilan bir qatorda, olamni bilish va lisoniy faoliyatning tutashganligini isbotlovchi dalillar topishga zamin hozirlaydi. Axborot almashinuvini taqozo etuvchi nutqiy muloqot hissiy va ratsional (oqilona) bilish harakatlarining o'zaro aloqasi natijasidir. Lisoniy muloqot qobiliyatining o'zi kognitiv va kommunikativ vazifalar umumlashmasi bo'lgan maqsadga erishishda lisondan foydalana olish qobiliyatidir. Pragmalingvistikaning metodologik negizini faoliyat nazariyasidan izlagan psixolingvistlardan biri Ye.F.Tarasovning fikricha, nutqiy muloqotning inson faoliyatiga bog'liq ekanligini ikki tomonlama tushunish kerak: "Birinchidan, faoliyat kechayotgan nutqiy muloqotning mundarijasi va vositalarini belgilab beradi. Muloqot mundarijasi kommunikantlarning hamkorlikdagi faoliyatidan iborat bo'lib, lisoniy belgilar

1. ²⁰ Safarov Sh, Pragmalingvistika, -Toshkent. 2008, -B. 25-26.



tanlovi va diskursning (nutqiy birlikning) tuzilishi ushbu hamkorlik maqsadi talabiga javob beradi. Ikkinchidan, faoliyat ko'rsatayotgan inson tasavvuridagi obyektlar dunyosini shakllantiradi va bu ob'yektlarning mavjudligi belgilar vositasidagi muloqotning eng birinchi va asosiy talabidir. Belgilar vositasidagi muloqot esa kommunikantlarning ideal obyektlar "dunyosi" umumiy bo'lgandagina amalga oshishi ma'lumdir".

Demak, pragmatik tadqiqotning asosi sifatida faoliyat tamoyilining qabul qilinishi nutqiy muloqot tizimining lisoniy pragmatik mundarijasi tahlilini asosiy o'ringa chiqardi. Bu esa, o'z navbatida, pragmatik tadqiqotlar doirasini yanada kengaytirdi va bu doiraga lisoniy voqelikdan tashqari, muloqot muhiti bilan bog'liq bo'lgan barcha ijtimoiy hodisalar tizimini kiritishga undadi. Bu holda lisoniy faoliyat inson ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarning bir turi sifatida qaraladi. J. Meyning qaydicha, "pragmatika harakatni, inson harakatini tavsiflaydi, lisoniy faollik esa, umuman, inson faoliyatiga bo'ysunadigan qonuniyatlarga amal qiladi"²¹

Frazeologik til birliklarining pragmatik xususiyatlari haqida so'z yuritgan B. Yo'ldoshev quyidagi fikrlarni bildirganda to'la haq edi: "FBlarning (frazologik birliklar – izoh bizniki) odatdagi, umumtil qo'llanishida uning shakli ham, mazmuni ham o'zgarmaydi. Lekin yozuvchilar, publitsistlar Fblarni ijodiy qo'llab, uni "yoshartiradilar", shu asosda iboraning uslubiy samaradorligini, ta'sirchanlik darajaini oshiradilar. Ana shunday hollarda FBlarning uslubiy imkoniyatlari bir necha barovar ortadi. Akad. G'. Abdurahmonov haqqoniy ta'kidlaganidek, "ma'lum so'z yoki iborani u yoki bu o'rinda ishlatishning muvofiqligini amalda, matnda ulug' yozuvchining yuksak didi payqay oladi". So'zlar singari FBlarning ham potensial imkoniyatlari matnda aniqlanadi, chunki iboralarning lug'atlarda beriladigan barqaror tasnifi bilan ularning nutq tarkibidagi "jonli faoliyati" o'rtasida mutloq tenglik y o'q. Ko'p qo'llanish natijasida o'z yangilik bo'yog'i, ohorini yo'qotib qo'ygan FBga "jon kiritish", "yangilash" uchun yozuvchi va shoirlar unga muayyan matniy shart-sharoit yaratadilar"²²

Biz ushbu maqolada atoqli yozuvchi Tog'ay Murodning asarlaridan so'zlashuv nutqiga xos bo'lgan iboralarning semantik-pragmatik xususiyatlarini, jumladan, yozuvchi kommunikativ maqsadini ifodalashdagi o'rnini bayon qilamiz.

Laylaklab qor yog'di, deyin dedim — yerda qordan nishona bo'lmadi. Dehqon bunday havoni: — Tulki qiziga to'y berdi, — deydi. Kechasi yig'ilishda raisimiz kunlik yaganani so'radi. Yo'l-yo'riqlar berdi. Shunda, raisimiz oldida turmish telefon jiringladi. Raisimiz telefonda salom-alik bo'ldi, Gap-so'zidan bildim — raisimiz ideologiya bilan gapirishdi. Ob-

2. ²¹ Hakimov M. O'zbek pragmatikasi asoslari. -T.: Akademiya nashri, 2013. -B. 81-83.

3. ²² Yo'ldoshev B. O'zbek tilida frazeologizmlarning uslubiy va pragmatik imkoniyatlari. -Samarqand: SamDU nashri, 2002. -B. 15-16.



havoni gapirishdi (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar, 64-b). Yuqoridagi kontekstda yozuvchi tabiatdagi qarama-qarshiliklarni ifodalash uchun xalq orasida ishlatiladigan iboradan mahorat bilan foydalangan. Ushbu jumlaning adib o'zi o'ylab topmagan. Bu ota-bobolarimizdan qolgan ibora. Bunday holat osmonda yirik-yirik qor parchalari o'ynoqlab ko'rinish berganda, quyosh zangori tus olsa ham, o'z tarovatini yo'qotmay turgan payt bo'ladi. Shu manzaraga qarab dehqonlar "Tulki qiziga to'y berdi" deyishadi. "Otamdan qolgan dalalar" romani tilining o'ziga xosligi yana shundan iboratki, ko'p hollarda asarning ta'sir kuchini oshirish niyatida adib so'zlarni takror-takror qo'llaydi. Bu ibora yomg'irdan so'ng kamalak chiqib, momaqaldir oq bo'lsa, "bo'ri bolaladi", deyishadi. – Quyosh chiqib turganda yomg'ir yog'sa "bo'ri tug'ayapti", tulki bolalayapti deyishadi. Ba'zilar esa bu holatni "tulki qizini erga beryapti", ham deydi.

Dini boshqa minba'd-minba'd el bo'lmaydi! Ivan Ivanovich! Sen tirigim tirnog'in yeding, sen o'ligim yog'in yeding – ammo to'ymading!- Ivan Ivanovich! Men ochlikdan o'lmadim-sen to'qlikdan yorilmading! (T. Murod, Otamdan qolgan dalalar, 163-b). Ushbu kontekstda Ivan Ivanovichga nisbatan "tirigim tirnog'in yeding, o'ligim yog'in" iborasini shijoat bilan aytishi orqali "haqorat", "jahl" ma'nolari ifodalangan. Bu ibora so'zlashuv nutqida salbiy baho ifodalovchi birlik ma'nosini anglatadi. Bu yerda tirnoq so'zi sinekdoxa yo'li bilan ma'no ko'chgan. Chunki "tirnoq" so'zi orqali butun bir xalq nazarda tutilgan. Xalqning bor-budini talon-taroj qilsa ham to'ymaganligi ifodalangan. "Men ochlikdan o'lmadim sen to'qlikdan yorilmading" birikmasidan "achchiqlanish", "nafarat" ma'nolari anglashilib turadi, bular, o'z navbatida psixologik kontekstga misol bo'ladi.

Tokaygacha odamlar qoboq-tumshug'iga qarab kun ko'radi? Yo shunday o'tib keta beradimi? Umri oxirigacha-ya? Og'ziga yetgan bor. Bir kun emas bir kun, birov bilan gapi chap tushadi. Yuziga aytadi... (T.Murod, Oydinda yurgan odamlar, 21-b). Parchadagi ibora "birovning ra'yiga qaramoq", "istaklariga qarab ish tutmoq" ma'nosini anglatadi. Uning "qosh-qovog'iga qaramoq", "qovoq-tumshug'iga qaramoq" kabi shakllari mavjud. "Ra'yiga qarab ish tutmoq" iborasidan ko'ra "qoboq-tumshug'iga qarab kun ko'rmoq" iborasi orqali ma'no kuchayadi. Ushbu ibora o'quvchida insonning o'z fikri, qarori bo'lishiga undaydi. Lekin kontekstda bunday psixologik munosabatlar aniq anglashilib turmaydi, bularning barchasi nutq yoki matnda nutqiy akt sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur parchada "qo'rquv", "g'azab", "alamzadalik", "achchiqlanish" ottenkasi anglashilib turadi.

Ota-onasi tag'in chaqirtirdi. -Uyimizdan ilon chiqqanmi?- piching qildi otasi. -Yo'q, nima edi? -talmovsiradi bolasi. -Bo'lmasa nimaga qorangni ko'rsatmaysan? (T.Murod, Oydinda yurgan odamlar, 23-b). Mazkur kontekstda "uyingdan ilon chiqqanmi" iborasi xonadonda yuz bergan janjal, kelishmovchilik, kutilmagan salbiy hodisani ta'riflash uchun ishlatiladi. "Uyingdan ilon chiqqanmi" iborasi so'zlashuv nutqida salbiy baho ifodalovchi birlik sifatida ifodalanadi. Yozuvchi bu ibora xonadondagi notinchlikni ilonning uyiga kirib, vahima solishiga o'xshatadi. Bu iboradagi "uy" so'zi ko'chma ma'noda qo'llanilgan bo'lib, qushlarning ini mazmunini beradi. Chunki ilon ko'proq qushlarning polaponiga hamla qilib oziqlanadi. Shuning uchun qushlar ba'zan zorlanib chirqillashadi. Bizningcha, ushbu iborani





bunga bog'liqligi bor. Mazkur ibora orqali qahramonning kinoya tarzda so'zlagani namoyon bo'ladi.

Xursandoy uch yasharligida otadan sag'ir qoldi. Onasi boshqa er qildi. Xursandoy o'gay ota qo'lida katta bo'ldi. Shu bois suyagi mehnatda qotdi. Oqibat, polvonsuyak bo'ldi (T.Murod, Oydinda yurgan odamlar, 34-b). Berilgan parchadagi "suyagi mehnatda qotdi" iborasi nafaqat jismoniy mehnatni, balki insonning hayot davomida ko'rgan mashaqqatlari, chidamliligi va matonatini ifodalovchi pragmatik yuklamaga ega. "Suyagi mehnatda qotdi" iborasi so'zlashuv nutqida ijobiy baho ifodalovchi birlik sifatida qo'llanadi. U orqali muallif qahramonning mehnatkashligi, chidamliligi hamda og'ir turmush sinovlaridan o'tganini ta'kidlaydi. Bu ibora shaxsni "oddiy mehnatkash emas, balki hayot sinovlari bilan chiniqqan inson" sifatida baholashga xizmat qiladi. Oddiy "ko'p mehnat qilgan" degan fikr o'rniga "suyagi mehnatda qotdi" iborasi ishlatilishi orqali ma'no kuchayadi. Bu yerda metaforik obraz orqali mehnat insonning butun vujudiga, hatto suyaklariga singib ketgani tasvirlanadi. Natijada qahramonning mehnatkashligi yuqori darajada ta'sirchan tarzda ifodalanadi. Mazkur ibora o'quvchida hamdardlik va hurmat tuyg'ularini uyg'otadi. Chunki ibora qahramonning og'ir hayotiy sharoitlarda ulg'ayganini va shu jarayonda chiniqqanini ko'rsatadi. Demak, frazeologizm matnga emotsional-ekspressiv bo'yoq beradi. Tog'ay Murodning mazkur parchasi kontekstida ibora qahramonning bolalikdan mehnatga majbur bo'lganini, turmushning og'ir sinovlari uni chiniqtirganini bildiradi. Bu yerda frazeologizm qahramon xarakterini ochuvchi pragmatik vosita sifatida xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, Tog'ay Murodning asarlaridagi iboralarning pragmatikasi rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ularning yangi ma'no qirralari tilimiz ifoda imkoniyatlarini kengaytirgan. Mazkur iboralar adib tomonidan o'ylab topilmagan bo'lib, xalq tilidan olingandir. Frazemlarni tahlilga tortish jarayonida g'azab, alam, kinoya, piching ottenkalari yaqqol sezilib turganini guvohi bo'ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev B. O'zbek tilida frazeologizmlarning uslubiy va pragmatik imkoniyatlari. -Samarqand: SamDU nashri, 2002. -37b.
2. Safarov Sh, Pragmalingsvistika, -Toshkent. 2008, -318b.
3. Hakimov M. O'zbek pragmalingsvistikasi asoslari. -T.: Akademi nashr, 2013. -176b.
4. Qurbonov S. Badiiy matnda iboralarning pragmatik xususiyatlari//Ilmiy axborotnoma, Scientific journal. 2022-yil, 4-son. -B.35-40.
5. Тоғай Мурод Ойдинда юрган одамлар (қисса).- Тошкент.2019, -87б.
6. Tog'ay Murod Otamdan qolgan dalalar, Toshkent: O'zbekiston, 2021. -360b.
7. Tog'ay Murod Yulduzlar mangu yonadi, Toshkent: Nurafshon kitob- ta'minot, 2022. -144b
8. Uztrj.uz

